

Qushlar uya qurishni qanday o'rganishgan

Xitoy xalq ertagi

Qaldirg'och, chumchuq, qarg'a, burgut, boyo'g'li va tovuq, Feniks degan qush in qurishni yaxshi biladi, degan xabami eshitib, undan o'rganish uchun huzuriga boribdilar.

- Usta bo'lish oson emas, chidam kerak; chidam bo'lmasa, hech narsani o'rganib bo'lmaydi, - deb maslahatini boshlabdi Feniks.

Tovuq uxlab qolibdi. Boyo'g'li: "Feniks chiroyli qush ekan-u, o'zi juda ham usta bo'lmasa kerak. Bekor kelibman", deb, uni masxara qilib, uchib ketibdi.

Feniks so'zini davom ettirib, debdi:

- In qurish uchun oldin tagini haqvvat qilish kerak. Buning uchun, masalan, dastvval katta daraxtdan uch butoqli va yonma- yon o'sgan shoxni topish kerak...

Burgut quvonibdi:

- E-e! Juda ham oson ekan-ku! O'zim bemalol in qursam bo'larkan, - debdi-da, u ham uchib ketibdi. Feniks so'zida davom etib:

- ...Mayda shoxchalar olib kelib, ustma-ust tashlash kerak... - Bu nasihat qarg'aning joniga tegibdi.

- Qar-r! Yetar-r, o'rgandim! - deb qag'illabdi-yu, u ham uchib ketibdi.

Feniks maslahatini beraveribdi:

- Biroq, hah uni mukammal bir in deb hisoblab bo'lmaydi. Xavfsiz bo'lishi uchun inni uyning tomi tagiga qurish yaxshiroq. Yomg'ir ham, shamol ham xalaqit bermaydi...

Chumchuq, "Boldi-da, yaxshi inni qurish oson ekan-ku", deb o'ylabdi va:

- O'rganib oldim! - deb, chirqillab uchib ketibdi.

Feniks yana so'zini davom ettiribdi:

- Buning uchun dastlab loy keltirish kerak, tartib bilan loyini suvash kerak, devorchalar qilish kerak, keyin ichiga par to'shash kerak, shunda yaxshi in bo'ladi. Tovuuq uxlab qolgani uchun hech narsani eshitolmabdi, in qurishni o'rganmabdi. Shuning uchun ham u odam qurib bergan katakda yashaydi. Boyo'g'li ham in qurishni o'rganib ololmabdi. Kechasi bilan u daraxtda o'tirib, zerikib, ahyon-ahyonda baqirib qo'yadi. Burgut uch butoqli shoxda o'tirib olib, uxlayveradi. Qarg'aning ini ham mustahkam emas: shamol turganda u yiqilib tushay-yiqilib tushay deb turadi. Chumchuqning tomlar tagiga qurgan ini qulay emas. Feniksning gapiga yaxshi quloq solgan qush qaldirg'och bo'libdi. U nasihatga yaxshi quloq solgani uchun ham o'ziga qulay in quradi. Qaldirg'och bu inida shamoldan ham, yomg'irdan ham qo'rqmaydi.

Uzoq sharq kitobidan